

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

|   |  |   |
|---|--|---|
| Ro'yxatga olindi<br>№ _____<br><br>2022 yil “ _____ ” |  | “TASDIQLAYMAN”<br>Qar MII rektori<br>“ “ O.SH.Bazarov<br>2022 yil “ “ ” |
|---|--|---|

**DARYO GIDROUZELLARIDAN FOYDALANISH fanining**

**O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 600000 – Qishloq va suv xo'jaligi  
Ta'lif sohasi: 650000 – Suv xo'jaligi (Irrigatsiya va melioratsiya)  
Ta'lif yo'nalishi: 5450400 – Gidrotexnika inshootlari va nasos  
stansiyalaridan foydalanish

Qarshi – 2022 y

Fanning o‘quv dasturi 5450400-Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish ta’lim yo‘nalishi davlat ta’lim standartlari (22.05.2015 y №5650) va malaka talablari ( Bayonnona №4.18.08.2018 y, O‘zb.R O va O‘MTV buyruq №744 25.08.2018 y) asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

I.E.Saidov – «Gidravlika va gidroinshootlar» kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

I.X.G‘ayimnazarov –Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti « Gidravlika va gidroinshootlar » kafedrasi katta o‘qituvchisi.

R.Ashurov – Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza Boshqarmasi sektor boshlig‘i.

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti institut kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

2022 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi “\_\_\_”.-son majlis bayoni .

## **Kirish**

Hozirigi paytda suv xo‘jaligi qo‘yiladigan talablar va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining 3–bosqichida kadrlar tayyorlash yo‘nalishlaridan kelib chiqqan xolda o‘quv dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Ushbu dastur daryodagi inshootlardan foydalanish, ta’mirlash, rekonstruksiya qilish, ishlatish rejimlari, kuzatuv va natijalarga ishlov berish masalalarini qamraydi.

### **O‘quv fanining maqsadi va vazifalari**

Fanning o‘qitishdan maqsad – talabalarga barcha turdagি daryo gidrouzellaridagi inshootlardan turli sharoitlarda barqaror foydalanish, ularni ta’mirlash, rekonstruksiya qilish, ishlatish rejimlari, kuzatuv va natijalarga ishlov berish bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malaka shakillantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarga turli xil daryo gidrouzellardan foydalanish xizmatining tashkilotlar tuzilishini, daryo gidrouzellar ish rejimlarini, ulardan foydalanish jarayonida olib boriladigan nazoratlar, qo‘llaniladigan nazorat o‘lchov asboblari (NO‘A), daryo gidrouzellar va ular tarkibidagi inshootlar elementlarining kamchiliklari va shikastlanishlarini aniqlash va ularni bartaraf qilishni o‘rgatishdan iborat.

### **Fan bo‘yicha talabalarining bilimiga, o‘quviga va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar**

«Daryo gidrouzellaridan foydalanish» o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- daryo gidrouzellari, tarkibidagi inshootlari va ularning elementlari ishlashini va holatini nazorat qilish va kuzatish uchun nazorat o‘lchov apparaturasi (NO‘A) xaqida bilishi kerak;
- turli daryo gidrouzellari ekspluatatsiya xizmatida faoliyat olib borish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

### **Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jixatdan uzviy ketma-ketligi**

Bu fan o‘quv rejasiga kiritilgan qurilish materiallari, chizma geometriya, injenerlik geodeziyasi, injenerlik geologiya va gidrogeologiya, hidrologiya va okimni rostlash, poydevorlar va zaminlar, injenerlik konstruksiyalari, hidravlika, qurilish mexanika, hidrotexnika inshootlari, va boshqa umumtexnik va mutaxassislik fanlar bilan bog‘lik xolda o‘rganilib, bu fanlardan yetarli bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi.

## **Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni**

Daryo gidrouzellaridan foydalanish fani daryodagi mavjud gidrotexnika inshootlaridan foydalanish va ularni nazorat qilishni o‘rgatadi. Shuning uchun xam ushbu fan asosiy ixtisoslik fan xisoblanib, ishlab chiqarishning ajralmas bo‘g‘indir.

### **Fanni o‘qitishdan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning «Daryo gidrouzellaridan foydalanish» fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muxim axamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallari, elektron materiallar, virtual stendlar xamda ishchi holatdagi gidrotexnika inshootlarining namunalari va maketlaridan foydalilanadi. Ma’ruza, amaliy va laboratoriya dasturlarida mos ravishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalilanadi.

**Asosiy qism**  
**Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni**  
**Daryo gidrouzellardan foydalanishi buyicha umumiy ma’lumotlar**

Daryo gidrouzellar turlari: past bosimli daryodan suv olish gidrouzellari (inshootlar bo‘g‘inilari), daryodagi suv ombor gidrouzellari. Daryo gidrouzellaridan foydalanish sharoitlari va xususiyatlari. Daryo gidrouzellar ishonchligi, ularning barqaror ish faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar. Daryo gidrouzellardan foydalanish xizmatining maqsadi, masalalari, axamiyati va tashkil etilishining tuzilishi (strukturasi). Daryo gidrouzellar ta’mirlash–tiklash ishlarini tashkil qilish. Daryo gidrouzellardan foydalanish jarayonidagi nazorat tizimi. Daryo gidrouzellardan foydalanish to‘g‘risidagi qoidalari, xujjatlari, kalendar rejalarini va xisobotlari.

**Daryo gidrouzellar tarkibidagi suv to‘suvchi grunt inshootlarini kuzatish**

Ko‘z bilan chamalash kuzatuvlar. Reper, markalar va boshqa inshoot cho‘kishi, egilishi, gorizontal ko‘chishini kuzatish uchun qo‘llaniladigan asbob–uskunalar konstruksiyalari, joylashuvi va axamiyati. Grunt to‘g‘onlardagi filtratsiya jarayonlarini nazorat qilish uchun pyezometrlar va boshqa qurilmalar joylashuvi va konstruksiyalari. Grunt inshootlarining zo‘riqtirish holatini kuzatib borish.

**Daryo gidrouzellar tarkibidagi yaxlit beton inshootlarni kuzatish**

Ko‘z bilan chamalash kuzatuvlar. Inshoot cho‘kishi, egilishi, gorizontal ko‘chishini, choklar va paydo bo‘ladigan yoriqlarni kuzatish uchun qo‘llaniladigan asbob–uskunalar konstruksiyalari, joylashuvi. Beton inshootda va uning asosida sodir bo‘ladigan filtratsiya jarayonini, betonning zo‘riqtirish deformatsiyalangan holati ni kuzatish. Betondan va inshoot asosidan filtratsiyani kuzatish usullari. Nazorat – o‘lchov asboblari (NO‘A), ularni inshootda joylashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish.

**Daryo gidrouzellar tarkibidagi suv o‘tkazish inshootlari va ularning mexanik qurilmalaridan foydalanish**

Muz tashkil etilishlari. Muz va qorlar tiqilishlari bilan kurash. Muz, shovush va boshqa turdagи suzib yuruvchi jismlarni qurilish davrida inshoot suv o‘tkazuvchi oraliklardan va siqilgan o‘zanlardan o‘tkazib yuborish. Pastki byef yuvilishlariga nazorat qilish. Yuqori tezlikli oqimlarini o‘tkazadigan inshootlarni kuzatish. Zatvorlarni manevrash. Toshqin suvlarni o‘tkazish va avariya holatlaridagi gidrotexnika inshootlaridan foydalanish chora tadbirlar. Mexanik qurilmalardan foydalanishning umumiy ko‘rsatmalari. Gidrotexnika inshootlar elementlarini o‘simliklar o‘rnashib qoplashi va zanglanishi bilan qarshi kurash chora tadbirlar. O‘zanlarni kuzatish va o‘zan rostlash inshootlardan foydalanish.

## **Past bosimli daryodan suv olish gidrouzellarining gidravlik rejimini kuzatish**

Past bosimli daryodan suv olish gidrouzellarning foydalanish jarayonidagi suv oqimi harakati, tezligi, sarfi, chuqurligi va cho'kindilar harakati, tezligi, yig'ilishi bo'yicha kuzatuvlarni tashkil etish, oborish va tahlil qilish. Ushbu kuzatuvlarni o'tkazish uchun ishlataladigan nazorat – o'lchov asboblar (NO'A), ularni joylashuvi, ulardan ma'lumotlarni olish va tahlil qilish. Past bosimli daryodan suv olish gidrouzellar ustki va pastki byeflaridagi o'zanlar shakllanishi, byeflardagi yuvilishi yoki cho'kindilar intensiv yig'ilishining asosiy sabablari va byeflarni cho'kindilardan yuvish uchun tavsiyalar va umumiyo ko'rsatmalar. Past bosimli daryodan suv olish gidrouzeldan foydalanish jarayonidagi kuzatuvlar natijasida gidrouzel ishini baxolash va yaxshilash..

## **Daryo gidrouzellar tarkibidagi suv olish inshootlari va tindirgichlaridan foydalanish**

Mexanik qurilmalardan foydalanishning umumiyo holati. O'zanlarni kuzatish va regulatsion inshootlardan foydalanish. Suv olish inshootlaridan foydalanish. Yuqori va pastki byeflarda loyqa cho'kindilarga qarshi kurash. Loyqa cho'kish jarayonida tindirgichlardan foydalanish. Tindirgichlarni loyqa cho'kindilardan tozalash. Misollar.

## **Daryo gidrouzellar tarkibidagi baliqlarni o'tkazib yuboruvchi va ximoyalovchi inshootlardan foydalanish**

Baliqlarni xayot faoliyat xususiyatlari. Baliq o'tkazuvchi shlyuzlar va boshqa inshootlardan foydalanish texnologik sxemalari. Baliqlarni ximoyalovchi inshootlardan foydalanish, ularning asosiy sxemalari.

## **Suv omborlari, selsuvomborlari va selxonalardan foydalanish**

Suv omborlari, selsuvomborlari va selxonalardan foydalanish jarayonida tabiatni muxofaza qilish tadbirlar, akvatoriyalaridagi asosiy tadbirlar. Suvomborlari, selsuvomborlari va selxonalarda olib boriladigan kuzatishlar tarkibi va ketma-ketligi. Suv omborlar, selsuvomborlar va selxonalar foydalanish jarayonida ulardagi suv va qattiq moddalar hajmilari o'zgarishining kuzatish, batigrafik egri chiziqlariga o'zgartirishlar kiritish. Ushbu kuzatuvlarni o'tkazish uchun ishlataladigan nazorat – o'lchov asboblar (NO'A), ularni joylashuvi, ulardan ma'lumotlarni olish va tahlil qilish. Misollar. Suv omborlar, selsuvomborlar va selxonalardan foydalanish asosiy qoidalari, xujjatlari, instruksiyalari.

## **Qurilish davrida gidrotexnika inshootlaridan foydalanishiga tayyorgarlik ishlarni olib boorish**

Qurilish davrida gidrotexnika inshootlaridan foydalanishiga tayyorgarlik ishlarni olib boorish, gidrotexnika inshootlarini qurilishidan so‘ng foydalanish xizmati tashkilotlariga topshirish va foydalanishga qabul qilish. Gidrotexnika inshootlari ustidan amaliyot tadqiqotlarini tashkil etish. Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish qoidalarining tuzish uchun asosiy ko‘rsatmalar.

### **Inshootlarda shikastlanish va avariya holatlarini tahlil qilish**

Gidrotexnika inshootlarining shikastlanishi va avariya holati ni tahlil qilish. Umumiyl tushunchalar. Grunt inshootlaridagi shikastlanish va avariya holatlari, yuzaga kelish sabablari. Beton, tosh va boshqa materiallardan tiklanadigan gidrotexnika inshootlaridagi shikastlanish va avariya holatlari, ularning yuzaga kelish sabablari. Suv tashlagichlar va mexanik jihozlar shikastlanishlari. Boshqa inshootlarining shikastlanishlari va avariya holatlari.

### **Gidrotexnika inshootlarni ta’mirlash, kayta tiklash ishlari**

Grunt to‘g‘onlar tepasi va qiyaliklari shikastlanishlarini ta’mirlash. Beton inshootlaridagi shikastlanishlarni ta’mirlash. Grunt to‘g‘onlarda sodir bo‘ladigan jadal filtratsiya oqimlarini bartaraf qilish. Filtratsiyaga qarshi elementlarni ta’mirlash. Grunt to‘g‘onlar drenaj tizimlarini ta’mirlash. Beton og‘ir (massiv) gidrotexnika inshootlarni umumiy va maxalliy shikastlanishlarini bartaraf qilish. Betonlik inshootlari yorilgan joylaridan va choklaridan suv oqib ketishlarini bartaraf qilish va suv o‘tkazmasligini va beton mustaxkamligini qayta tiklash. Gidrotexnika inshootlar pastki byefdag‘i ta’mirlash ishlarni o‘tkazish. Quvur va tunnellar ta’mirlash ishlarning xususiyatlari. Gidromeliorativ tizimdag‘i gidrotexnika inshootlarini ta’mirlash ishlarning hususiyatlari.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR**

1. Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar turli daryodagi gidrotexnika inshootlaridan foydalanish va ularni nazorat qilish asoslarini o‘rganadilar.
2. Amaliy mashg‘ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:
3. Asosiy davlat reperlari va dastlabki reperlar joylashuvi sxemasini va konstruksiyalarini o‘rganish.
4. Grunt inshootlarda o‘rnatilgan yuzalik markalar konstruksiyalarini o‘rganish.
5. To‘g‘on tanasining gorizontal va boshqa ko‘chishlarini o‘lchovchi asboblar konstruksiyalarini o‘rganish.
6. Ko‘rsatkich va stvor znaklarning joylashuvi va konstruksiyalarini o‘rganish. Grunt to‘g‘on tanasidagi pyezometrlar joylashuvi sxemalari va konstruksiyalarini o‘rganish.
7. Pyezometrlar ustki qismi konstruksiyalarini o‘rganish.

Grunt g'ovaklarida pezometrik bosimini o'lchovchi asboblar konstruksiyalarini o'rGANISH.

Betonlik inshootlar balandlik markalari konstruksiyalarini o'rGANISH. Gidrostatik niveler konstruksiyasini o'rGANISH.

Beton holati o'lchovchi asboblar konstruksiyalarini o'rGANISH.

Belgilangan suv ta'minoti grafigiga binoan suv omboridan suv chiqazgichning zatvorlar ochilishi balandligini xisobi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqildi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarinini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

### **Mustaqil ishlarni tashkil etish shakli va mazmuni**

- Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan xolda, quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rGANISH;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;

- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

- yangi texnikalarni, apparaturalarni, ilmtalab jarayonlar va texnologiyalarni o'rGANISH;

- talabalarning ixtisoslashtirilgan konstruktorlik byurosi (MKB) yoki kichik korxonalardagi ishlari;

- talabaning ilmiy tekshirish ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqr o'rGANISH;

- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (xizmat o'yinlari, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.);

- masofaviy (distansion) ta'lim va boshqalar.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarining mavzulari quyidagilar:

Daryo gidrouzel inshootlaridagi mexanik qurilmalardan foydalanish instruksiyalarini o'rGANISH.

Daryo gidrouzel inshootlaridagi yassi g'ildirakli zatvorni ko'tarishiga, o'tirg'izishiga va ushlanishiga kerakli yuklanishlarini aniqlash xisobi.

Daryo gidrouzel inshootlaridagi yassi g'ildirakli zatvornidan foydalanish qoidalarini o'rGANISH.

Daryo gidrouzel inshootlaridagi segmentaviy zatvorni ko'tarishiga, o'tirg'izishiga va ushlanishiga kerakli yuklanishlarini aniqlash xisobi.

Daryo gidrouzel inshootlaridagi segmentaviy zatvoridan foydalanish qoidalarini o‘rganish.

Daryo gidrouzel inshootlaridagi suv sathini boshqaruvchi gidravlik zatvor–avtomatlarning xisobi.

Daryo gidrouzel inshootlaridagi suv sathini boshqaruvchi gidravlik zatvor–avtomatlardan foydalanish qoidalarini o‘rganish.

Daryo gidrouzeldagi suv olish inshooti suv sarfini boshqaruvchi gidravlik zatvor–avtomatlarni xisobi.

Daryo gidrouzeldagi suv olish inshooti suv sarfini boshqaruvchi gidravlik zatvor–avtomatlardan foydalanish qoidalarini o‘rganish.

To‘g‘onsiz daryo gidrouzellar gidravlik avtomatizatsiyasi sxemalarini o‘rganish.

To‘g‘onlik daryo gidrouzellar gidravlik avtomatizatsiyasi sxemalarini o‘rganish.

Turli past bosimli to‘g‘onlik daryo gidrouzellar ekspluatatsiyasi qoidalarini o‘rganish.

Suv ombori, selxona va selsuvombori daryo gidrouzellar ekspluatatsiyasi qoidalarini o‘rganish.

### **Dasturning informatsion – uslubiy ta’minoti**

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

- daryo gidrouzellaridan foydalanish fani yirik bo‘limlariga tegishli ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentsatsion va elektron-didaktik texnologiyalaridan;
- daryo gidrouzellaridan foydalanish va inshootlar ishlash rejimi xisoblarini bajarish kabi amaliy mashg‘ulotlarda aqliy xujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalaridan;

## **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati**

### **Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar**

1. Кавешников Н.Т. Эксплуатация и ремонт гидротехнических сооружений. – Москва: Агропромиздат, 1989. 272 с.
2. Мухамедов А.М. Эксплуатация низконапорных гидроузлов на реках, транспортирующих наносы. – Ташкент: Фан, 1976. 238 с.
3. Серков В.С. Эксплуатация гидротехнических сооружений и гидроэлектростанций. – Москва: Энергия, 1977. 228 с.
4. Г.В.Соболин. Эксплуатационная оценка и усовершенствование гидротехнических сооружений Киргизии. – Фрунзе: Картпредприятие МСХ Кирг.ССР, 1974. 263 с.
5. Кадирова М.-Г.А. Дарё гидроузелларидан фойдаланиш. Дарслик. - Тошкент:ТИМИ, 2008. 354 б.
6. Бакиев М.Р., Кавешников Н.Т., Турсунов Т.Н. Гидротехника иншоотларидан фойдаланиш. Дарслик. - Тошкент:ТИМИ, 2008. 415 б.

### **Қўшимча адабиётлар**

1. Типовая инструкция по технической эксплуатации речных плотинных водозаборов оросительных систем. ВСН. 33–3.02.82.–84. –Москва: 1983.–58с.
2. www. papplewickpumpingstation.co.uk/-top; es – elektro. ru lindexoz – 15, htm; altsi. ru.
3. Ҳусанхўжаев З.Х. Гидротехника иншоотлари. –Т., Ўқитувчи, 1968.-250 б.
4. Ҳусанхўжаев З.Х. Сув омборларидаги гидротехника иншоотлари. – Т., Ўқитувчи, 1986. -214 б.
5. Bakiev M.R., Kadirova M.A., Ibraymov A., «Gidrotexnika inshootlari» fanidan kurs loyihalari va amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha metodik ko‘rsatma. 2-qism. «Grunt to‘g‘onli suv omboridagi inshootlar tuguni». – Т., 2009.-102 б.
- 6.Bakiyev M.R., Kadirova M.A., Ibraymov A., «Gidrotexnika inshootlari» fanidan kurs loyihalari va amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha metodik ko‘rsatma. 1-qism. «Kanallardagi inshootlar bo‘g‘ini». – Т., 2009.-150 б.
7. Bakiev M.R., Kirillova E.I., Qahhorov O’A.,«Gidrotexnika inshootlari» fanidan laboratoriya ishlarini bajarish uchun metodik ko‘rsatma. – Т., 2010.-48 б.
8. P. Novak, A.I.B. Moffat and C. Nalluri, Hydraulic structures, 3rd edi
9. [www.Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)
10. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
- 11.[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
- 12.[www.edu.uz](http://www.edu.uz).



